2022 yil 1 chorakda Jamiyatni rivojlantirish strategiyasi bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar haqida ma’lumot

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 28 oktabrdagi PF-6096-sonli Farmoni va “Yo‘l xarita”ga muvofiq Jamiyatni xalqaro talablar asosida transformatsiya qilish amalga oshirilmoqda.

1. Xalqaro konsalting kompaniyasini jalb etgan holda 2019-2021 yillar uchun moliyaviy hisobotlar xalqaro moliyaviy hisobotlar standartlari (IFRS) asosida tayyorlandi. Ushbu hisobotlarga katta to‘rtlikka kiruvchi **“Deloitte&Touche” MCHJ** xalqaro kompaniyasining audit xulosalari olindi.

2. Jamiyatni moliyaviy sog‘lomlashtirish, operatsion samaradorlikni oshirish, shuningdek, o‘rta va uzoq muddatli Jamiyatning rivojlanish strategiyasi “HLB Tashkent” MCHJ xalqaro audit kompaniyasi tomonidan ishlab chiqildi.

3. Zamonaviy korporativ boshqaruv tizimini joriy etish maqsadida, Kuzatuv kengashi tarkibi yangilandi va unda 2 ta mustaqil a’zoni jalb etish ko‘zda tutilgan. Ijro apparatiga xalqaro tajribaga ega bo‘lgan 5 ta mutaxassis jalb etildi.

4. Xaridlar va menejment tizimini isloh qilish maqsadida 2019-2020 yillardagi faoliyat “forenzik” auditidan o‘tkazilib, 2021 yil sentabr oyida Moliya vazirligiga taqdim etildi. Hozirda, 2021 yildagi faoliyat “Deloitte&Touche” MCHJ tomonidan “forenzik” auditidan o‘tkazilmoqda.

Xaridlar tizimini avtomatlashtirish maqsadida 1S ERP tizimi joriy etilmoqda. Joriy yil noyabr oyigacha tizimni to‘liq joriy etish yakunlanadi.

Shuningdek, jamiyat faoliyatini raqamlashtirishga alohida e’tibor qaratilgan. Bugungi kunda dala va kon geofizikasi ma’lumotlari olish, qayta ishlash va talqin qilish butun vertikal bo‘ylab to‘liq raqamlashtirildi. Raqamli formatdagi dala sharoitida olingan materiallar online tarzda qayta ishlash markaziga yuboriladi, zamonaviy dasturiy kompleksda qayta ishlanadi va talqin qilinadi. Natijada, geofizik ma’lumotlarning olish tezligi, ularning sifati va ishonchlilik darajasi sezilarli oshdi.

Joriy etilgan geotexnologik stansiyalaridan neft-gaz quduqlarida burg‘ilash jarayoni holati va ko‘rsatkichlari mutaxassislarimiz tomonidan online rejimda kuzatiladi va nazorat qilinadi.

Shuningdek, Jamiyatda geofizika ma’lumotlarining yagona elektron bazasi yaratilgan bo‘lib, 1957 yildan boshlab olingan materiallar raqamli ko‘rinishda to‘ldirib borilmoqda. Bu ishlarni 2023 yil oxirigacha yakunlash ko‘zda tutilgan.

Avtotransport vositalari va mexanizmlar harakati to‘liq GPS-trekerlar orqali online rejim nazorati bilan qamrab olindi, asosiy uskunalar va transportlar ta’mirlash jarayonini ERP tizimida masofadan boshqarishni joriy etishga kirishildi.

Shuningdek, Jamiyat faoliyatida hujjatlar aylanmasi va ijro intizomi to‘liq maxsus dasturlar (Germes, Bitriks, E-ijro) orqali amalga oshirilmoqda.

5. 2021 yilda Korrupsiyaga qarshi kurash agentligi tavsiyalari asosida komplaens tizimi joriy etildi, tegishli 11 ta ichki hujjatlar tasdiqlandi. Kuzatuv kengashi bilan kelishilgan holda nazorat xizmati ochildi va ochiq konkurslar asosida ular malakali mutaxassislar bilan to‘ldirildi.

6. Jamiyatning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini takomillashtirish maqsadida 2021-2023 yillar uchun biznes-reja ishlab chiqildi.

7. Jamiyat rahbarlari faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida samaradorlik va natijadorlik, tannarxni pasaytirish, jamiyatni isloh qilish va bozor tamoyillarini amalda joriy etish mezonlari asosida ularning shaxsiy mas’uliyati va moddiy javobgarligini belgilash bo‘yicha Ijro organining har bir a’zosi bilan tuzilgan shartnomalarga tegishli o‘zgartirishlar kiritildi.

Jamiyat boshqaruvi KPI ko‘rsatkichlari bo’yicha har chorakda Kuzatuv kengashiga hisobot beradi. Bundan tashqari o‘rta bo‘g‘in raxbarlari uchun ham KPI ko‘rsatkichlari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi.

Bugungi kunda “S&P Global Ratings”, “Fitch Ratings” va “Moody’s” xalqaro reyting agentliklariga murojaat qilinib, muzokaralar boshlandi. Rejalashtirilgan tadbirlar doirasida joriy yil oxirigacha Jamiyatning korporativ (kredit) reytingini olish rejalashtirilgan.

Jamiyatni transformatsiya qilish choralari Moliya vazirligi va Davlat aktivlarini boshqarish agentligi yordamida amalga oshirib kelinmoqda.

Информация за 1 квартал о проводимой работе
по достижению стратегиий развития общества в 2022 году

В соответствии с Указом Президента Республики Узбекистан №УП-6096 от 28 октября 2020 года и «Дорожной картой», осуществляется трансформация Общества на основе международных требований.

1. Финансовая отчетность за 2019-2021 годы подготовлена на основе международных стандартов финансовой отчетности (МСФО) с привлечением международной консалтинговой компании. Получены аудиторские заключения международной компании **“Deloitte&Touche”** LLC.

2. Стратегия финансового оздоровления, повышения операционной эффективности, а также среднесрочная и долгосрочная стратегия развития Общества разработана аудиторской компанией ООО «HLB Tashkent».

3. В целях внедрения современной системы корпоративного управления ведется работа по обновлению состава Наблюдательного совета и включения в него 2х независимых членов. В Исполнительный аппарат привлечено 5 специалистов с международным опытом.

4. В целях реформирования системы закупок и управления проведен «форензик» анализ деятельности за 2019-2020 годы и результаты представлены в Министерство Финансов в сентябре 2021 года. В настоящее время со стороны ООО **“Deloitte&Touche”** проходит «форензик» анализ деятельности 2021 года.

Внедряется система 1С ERP для автоматизации системы закупок. Особое внимание уделяется цифровизации бизнес-процессов общества.

Сбор, обработка и интерпретация полевых сейсмических и промысловых геофизических данных полностью оцифрованы. Полученные в полевых условиях материалы в цифровом формате в режиме онлайн отправляются в центр обработки, где интерпретируются с помощью современного программного комплекса. В результате значительно возросла скорость получения, повысилось качество и уровень достоверности геофизических данных.

Состояние и показатели процесса бурения нефтяных и газовых скважин в недавно введенных геотехнологических станций отслеживаются и контролируются специалистами дистанционно в режиме онлайн.

В обществе создана единая электронная база геофизических данных, а материалы, полученные с 1957 года, заполняются в цифровом виде. Завершить эти работы планируется к концу 2023 года.

Передвижение существующих автотранспортных средств и механизмов полностью охвачено оперативным режимом контроля через GPS-трекеры,

начато внедрение удаленного управления основным оборудованием и процессом ремонта транспортных средств в ERP-системе.

Документооборот и контроль исполнительской дисциплины Общества осуществляется через специальные программы (Гермес, Битрикс, E-ijro).

5. В 2021 году внедрена система комплаенс, на основании рекомендаций Антикоррупционного агентства утверждено 11 соответствующих внутренних документов. Открыта служба комплаенс-контроля, и на основе открытых конкурсов укомплектована квалифицированными специалистами.

6. В целях совершенствования финансово-хозяйственной деятельности общества разработан Бизнес-план на 2021-2023 годы.

7. Повышена личная ответственность членов Правления общества путем внесения дополнений в трудовые договора. Работа Правления оценивается исходя из критериев эффективности и результативности, снижения затрат, реформирования общества и реализации рыночных принципов.

Правление ежеквартально отчитывается перед Наблюдательным советом по показателям KPI. Кроме того, разработаны и внедрены в практику показатели KPI для руководителей среднего звена.

В настоящее время ведутся переговоры с международными рейтинговыми агентствами "S&P Global Ratings", "Fitch Ratings" и "Moody's". В рамках запланированных мероприятий до конца текущего года планируется получить корпоративный (кредитный) рейтинг общества.

В целом меры по преобразованию общества реализуются при координации Министерства финансов и Агентства по управлению государственными активами.

Information for the 1st quarter on ongoing work to achieve the society development strategy in 2022

In accordance with the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-6096 dated October 28, 2020 and the Roadmap, the Company is being transformed based on international requirements.

1. The financial statements for 2019-2021 have been prepared on the basis of International Financial Reporting Standards (IFRS) with the involvement of an international consulting company. Audit reports of the international company "Deloitte&Touche" LLC were received.

2. The strategy for financial recovery, increasing operational efficiency, as well as the medium and long-term development strategy of the Company was developed by the audit company HLB Tashkent LLC.

3. In order to introduce a modern corporate governance system, update the composition of the Supervisory Board and include 2 independent members in it. 5 specialists with international experience are involved in the Executive Office.

4. In order to reform the procurement and management system, a forensic analysis of activities for 2019-2020 was carried out and the results were submitted to the Ministry of Finance in September 2021. Deloitte&Touche LLC is currently undergoing a "forensic" analysis of its activities in 2021.

A 1C ERP system is being introduced to automate the procurement system.

Particular attention is paid to the digitalization of society. Today, the collection, processing and interpretation of field seismic and field geophysical data are fully digitized.

Field-sourced materials in digital format are sent online to the processing center, where they are processed and are interpreted with the help of a modern software package.

As a result, the speed of obtaining geophysical data has significantly increased, the quality and the level of reliability have increased.

Status and indicators of the process of drilling oil and gas wells from recently introduced geotech stations are tracked and controlled by our specialists remotely online.

The company has created a unified electronic database of geophysical data, and the materials received since 1957 are filled in digital form. It is planned to complete these works by the end of 2023.

The movement of existing vehicles and mechanisms was fully covered by the operational control mode through GPS trackers, the introduction of remote control of the main equipment and the process of repairing vehicles in the ERP system was started.

Document flow and control of the executive discipline of the Company is carried out through special programs (Germes, Bitrix, E-ijro).

5. In 2021, a compliance system was introduced based on the recommendations of the Anti-Corruption Agency, 11 relevant internal documents were approved. Compliance Control Supervisory Service was opened, and on the basis of open competitions, the service is staffed with qualified specialists.

6. In order to improve the financial and economic activities of the company, a Business Plan for 2021-2023 has been developed.

7. In order to coordinate the activities of the Management Board of the company, based on the criteria of efficiency and effectiveness, cost reduction, reforming the company and implementing market principles, changes were made to their personal responsibility and financial responsibility with contracts concluded with each member of the executive body.

Today, the Management Board reports quarterly to the Supervisory Board on KPI indicators. In addition, KPI indicators for middle managers were developed and put into practice.

In general, measures to transform society are implemented with the help of the Ministry of Finance and the State Assets Management Agency. Negotiations are currently underway by international rating agencies S&P Global Ratings, Fitch Ratings and Moody's.

As part of the planned activities, by the end of this year it is planned to obtain a corporate rating of the company in cooperation with one of the international rating agencies S&P Global Ratings, Fitch Ratings and Moody's.